

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**  
**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**  
**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA JISMONIY TARBIYA  
DARS JARAYONI SIFATINI BOSHQARISH MODELII**

**Mengliyev Bobur Normamatovich-**  
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari  
universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
kafedrasida katta o‘qituvchisi  
[mengliyevbobur98@gmail.com](mailto:mengliyevbobur98@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0005-1696-6189>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida jismoniy tarbiya dars jarayoni sifatini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada ta’lim jarayonida talabalarning jismoniy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv modeli taklif etiladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishda o‘qituvchining innovatsion faoliyati, diagnostika va monitoring tizimining ahamiyati yoritilgan.

**Аннотация:** В статье анализируются теоретические и практические аспекты управления качеством уроков физической культуры на основе компетентностного подхода. Предлагается модель управления, направленная на развитие физических, социальных и профессиональных компетенций студентов в образовательном процессе. Подчеркивается важность инновационной деятельности учителя, систем диагностики и мониторинга в повышении эффективности уроков физической культуры.

**Annotation:** This article analyzes the theoretical and practical aspects of managing the quality of physical education lessons based on a competency-based approach. The article proposes a management model aimed at developing students' physical, social and professional competencies in the educational process. It also highlights the importance of the teacher's innovative activities, diagnostics and monitoring systems in increasing the effectiveness of physical education classes.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, jismoniy tarbiya, ta’lim sifati, boshqaruv modeli, o‘quv jarayoni, monitoring tizimi, diagnostika, innovatsion

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI


## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

pedagogika, o‘qituvchi faoliyati, talaba kompetensiyasi, sifatni baholash, ta’lim samaradorligi

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv muhim o‘rin egallamoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirish, mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya darslari esa bu jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki shaxsning ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya darslarining sifatini boshqarish — bu o‘quv jarayonini tahlil qilish, rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni baholashni o‘z ichiga olgan murakkab tizimdir. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan boshqaruv modeli talabalarning faolligini oshirish, individual imkoniyatlarni hisobga olish hamda o‘quv jarayonining natijadorligini kafolatlashga yo‘naltiriladi. Shu bois, ushbu maqolada jismoniy tarbiya dars jarayonining sifatini boshqarishning zamonaviy modeli, uning tarkibiy qismlari va amaliy qo‘llanilish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

### KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA JISMONIY TARBIYA DARS JARAYONI SIFATINI BOSHQAU MODELI



# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Demak, kompetensiyaga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan zamonaviy sharoitlarda jismoniy tarbiya mutaxassislarining kompetentligi nafaqat bilim hajmi, ularning ensiklopedik tabiati, balki mavjud bilimlar asosida turli xil murakkablikdagi kasbiy muammolar va vazifalarni hal qilish qobiliyati bilan ham o‘lchanadi. Bu esa tadqiqot ishining navbatdagi bosqichida jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy-pedagogik kompetentlik tuzilmasini ilmiy jihatdan o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Quyida jismoniy tarbiya mutaxassislarining pedagogik kompetentligini shakllantirishga oid xalqaro modellarning mualliflari, ularning qo‘llanilishi va amaliyotga tatbiq etilgan davlatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan:

Jismoniy tarbiya mutaxassislarining pedagogik kompetentligini takomillashtirishga oid xalqaro modellar zamonaviy ta’lim, sport va kasbiy rivojlanish sohalarida yetakchi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Quyida bu sohada tavsiya etish mumkin bo‘lgan xalqaro modellar haqida ma’lumot beramiz:

**1-model. Technological Pedagogical Content Knowledge Model - Texnologik-pedagogik mazmun bilimlari (TPACK) modeli.** Model mualliflari **Punya Mishra** va **Matthew J. Koehler** va boshqalar sanalishadi<sup>1</sup> [\*\*]. Mazkur modelning mohiyati, jismoniy tarbiya mutaxassislarining texnologik, pedagogik va mazmunga oid bilimlarini integratsiya qilishni nazarda tutadi. Ushbu model zamonaviy texnologiyalarni pedagogik usullar bilan uyg‘unlashtirgan holda, o‘qituvchilarning mazmun bilimlarini boyitish hamda ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Uning qo‘llanilishi sohalarida quyidagilarni: a) jismoniy tarbiya fanini zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bilan boyitish; b) qisqa masofaga yugurish, jismoniy tayyorgarlik kabi mashg‘ulotlarda zamonaviy uskunalardan foydalanish va boshqalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. TPACK modeli, ayniqsa, texnologik vositalardan foydalangan holda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda o‘qituvchilarga yordam beradi. Bu model AQSh, Kanada, Avstraliya kabi rivojlangan davlatlarda keng tatbiq etilgan.

---

<sup>1</sup> <https://www.punyamishra.com/wp-content/uploads/2013/08/TPACK-handbookchapter-2013.pdf>

# **O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

## **II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Texnologik-pedagogik mazmun bilimlari (TPACK) modeli jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni ta’minlash, pedagogik yondashuvlarni boyitish va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu modelni jismoniy tarbiya faniga moslashtirish bo‘yicha quyidagi taklifni ilgari surish mumkin:

Taklif: Texnologiyalarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga integratsiya qilish. Bunda,

Jismoniy tarbiya fanidan dars va (yoki) to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni sport harakatlarini kuzatish va tahlil qilish uchun videokameralar va maxsus dasturlar, ya’ni “Harakatni tahlil qilish texnologiyalari”dan foydalanish (masalan, dars jarayonida o‘quvchilarning yugurish texnikasini baholash uchun mobil ilovalar) maqsadga muvofiq sanaladi;

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘quvchilarga “Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari” yordamida sport usullarini o‘rgatish (masalan, ta’lim tizimi mazmuniga a) virtual stadion va (yoki) sport o‘yinlari orqali turli vaziyatlarni simulyatsiya qilish; b) anatomik modellarni real ko‘rinishda tushuntirish, sport texnikasi bo‘yicha mashqlarni namoyish etishni singdirish; c) jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida harakatlarni virtual simulyatsiyalarda o‘rganish va (yoki) mashqlarni tahlil qilish imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni joriy qilish; d) sport musobaqalari paytida esa virtual trenajyorlarda tayyorgarlik ko‘rish va (yoki) sportchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish) mumkin;

Jismoniy tayyorgarlik dasturlarini tashkil qilish uchun mobil ilovalar (masalan, “Pedometer” yoki “MyFitnessPal”) yordamida o‘quvchilarning faoliyatini nazorat qilish samarali hisoblanadi.

Fikrimizcha, TPACK modelini jismoniy tarbiya faniga moslashtirish pedagogik jarayonni zamonaviylashtirish, o‘quvchilarning texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu yondashuv orqali o‘qituvchilar pedagogik faoliyatning texnologik, mazmuniy va metodologik jihatlarini uyg‘unlashtirishga erishadilar.

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

O‘zbekiston sharoitida mazkur model jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari sifatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

### **2-model. Self-Determination Theory - O‘zini o‘zi belgilash nazariyasi (SDT).**

Model mualliflari **Richard M. Ryan** va **Edward L. Deci** sanalishadi<sup>2</sup> [\*\*]. Mazkur modelning mohiyati, odamlarning avtonomiya, mahorat va ijtimoiy aloqalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish orqali motivatsiyani rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu nazariya insonning motivatsiyasini oshirish va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ta’lim jarayonini samarador qilishni maqsad qiladi. Uning qo‘llanishi sohalari sifatida: a) jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun motivatsiya asosida mashg‘ulotlarni rejalashtirish; b) sport tadbirlarida o‘quvchilarning qiziqishi va faolligini oshirish kabilarni e’tirof etish mumkin. Jismoniy tarbiya darslarida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi motivatsion aloqalarni mustahkamlash uchun SDT modeli muvaffaqiyatli ishlatilmoqda. Hozirda bu modeldan AQSh, Kanada va Yevropa mamlakatlari keng ko‘lamda foydalanishadi.

### **3-model. OECD’s 21st Century Skills Model - OECD XXI asr ko‘nikmalari**

**modeli.** Modelning yaratuvchilari OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar hisoblanadi<sup>3</sup> [\*\*]. XXI asr ko'nikmalari - bu fikrlash, o'rganish, ishlash va dunyoda yashash usullarini yaxshilash uchun o'rganilishi va (yoki) o'qitilishi mumkin bo'lgan qobiliyatlar va fazilatlardir. Ushbu ko‘nikmalarga quyidagilar kiradi: ijodkorlik va innovatsiya, tanqidiy fikrlash/muammolarni hal qilish/qaror qabul qilish, o‘rganishni o‘rganish/metakognitsiya, muloqot, hamkorlik (jamoaviy ish), axborot savodxonligi, AKT savodxonligi, fuqarolik (mahalliy va global), hayot va karyera ko‘nikmalari hamda shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyat (madaniy xabardorlik va kompetensiyani o‘z ichiga olgan holda) demakdir. Ushbu model mohiyati, XXI asrdagi o‘quvchilar va pedagoglar uchun muhim bo‘lgan kompetensiyalarni, shu jumladan, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga

---

<sup>2</sup> [https://selfdeterminationtheory.org/SDT/documents/2000\\_RyanDeci\\_SDT.pdf](https://selfdeterminationtheory.org/SDT/documents/2000_RyanDeci_SDT.pdf)

<sup>3</sup> <https://www.cambridgeassessment.org.uk/Images/461811-the-cambridge-approach-to-21st-century-skills-definitions-development-and-dilemmas-for-assessment-.pdf>

# O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

## II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

qaratilgan.

Umuman olganda, O‘zbekiston sharoitida yuqorida keltirilgan uchta modelni moslashtirish jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda samarali bo‘lib, ularni XXI asr talablariga mos keladigan yetakchi pedagoglar sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu modellarni integratsiyalash hisobiga jismoniy tarbiya darslari orqali o‘quvchilarda ijodkorlik, texnologik bilimlar va motivatsiya kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bois tadqiqot ishimizning navbatdagi bosqichlarida pedagogik kompetentlikni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda zamonaviy talab sanalgan tendensiyalarni aniqlab ta’lim jarayoniga model va mexanizmlarni moslashtiramiz hamda tegishli ilmiy xulosalarni ishlab chiqamiz.

**Xulosa:** Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida jismoniy tarbiya dars jarayonini boshqarish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi samarali model sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yondashuv dars jarayonining sifatini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash, mas’uliyat va sog‘lom turmush tarziga intilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Taklif etilgan boshqaruv modeli jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga dars jarayonini tizimli tahlil qilish, o‘quv faoliyatini boshqarish va natijadorlikni baholashda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida mazkur modelni turli ta’lim bosqichlarida amaliy sinovdan o‘tkazish va uning samaradorligini baholash masalalari ilmiy izlanishlar yo‘nalishida davom ettiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Xayrullaev R., Raximov Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

2.G‘ofurov B., Mavlonov R. Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

3.Shirinov D. Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion yondashuvlar. // *Pedagogika va psixologiya jurnali*, №3, 2021. – B. 45–51.

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

4.Davletova N., To‘laganova Z. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim sifatini boshqarish modellari. // *Ta’lim muammolari ilmiy to‘plami*, №2, 2022. – B. 60–68.

5.European Commission. Key Competences for Lifelong Learning – Framework. – Luxembourg: Publications Office of the EU, 2018.

6.UNESCO. Quality Physical Education Guidelines for Policy-Makers. – Paris, 2020.